
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Cavol: O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining referendumini O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir.

Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi.

Agar referendumda qabul qilingan qarorlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, referendumda qabul qilingan qarorlar faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Referendum O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-03-13 19:25:08